

KIBERMAKONDA AXBOROT ISTE`MOLI MADANIYATI

Kosimov D. N.

O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi malaka oshirish markazi
Samarqand viloyati mintaqaviy filiali o`qituvchisi.

Bugungi kunda kundalik halqaro munosabatlarda “axborot urushi”, “axborot qarama-qarshiligi”, “axborot bosimi” kabi tushunchalar ko`p ishlatilayotganligi o`quvchi-yoshlarni axborot hurujidan himoyalash bo`yicha choralar ko`rish muximligini yanada oshiradi. Ushbu muammoning dolzarbligi yana shundaki, hozirda odamlar ongi ma`lum darajada ommaviy axborot vositalarining faoliyati va axborot resurslarining ta`siridadir.

Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli odamlar dunyoning istalgan nuqtasida turli xil ma`lumotlarga ega bo`lishlari, ma`lumot almashishlari va real vaqt rejimida muloqot qilishlari mumkin. Axborot oqimlarida erkin yo`naltirish uchun har qanday profilning zamonaviy mutaxassisi kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda ma`lumotlarni olish, qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. Ammo buning uchun juda ko`p miqdordagi mavjud ma`lumotlar bo`ylab harakatlanish qoidalarini bilish va ma`lum bir axborot madaniyatiga ega bo`lish kerak.

Yangilikka, turli axborotlarga hamisha qiziqish bilan qaraydigan yoshlar ongiga internet qay darajada ta`sir ko`rsatayotgani haqida aytilayotgan har bir fikr zamirida ulkan ma`no mujassam. Yoshlarning internetga bo`lgan qiziqishlarini yaxshi bilgan ayrim buzg`unchilar bundan juda ustalik bilan foydalanib, “axborot huruji”ni avj oldirmoqdalar. “Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko`rilmagan imkoniyatlar yaratib bergan. Avvalambor, fan va texnikaning ilg`or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o`rtasidagi chegaralarni ochib berib, o`zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so`zsiz katta hissa qo`shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo`lmoqdamiz. Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo`lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo`lgan ayrim siyosiy kuchlarning g`arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e`tibordan chetda qoldirib bo`lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma`naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o`ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Hozirgi globallashgan dunyoda yoshlar ongiga salbiy ta`sir qilayotgan unsurlar ham paydo bo`layotganiga befarq qaray olmaymiz. Yagona axborot makonida avj olayotgan turli mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari yosh avlod ongu shuuriga jiddiy zarar yetkazishi

mumkin. Endi asosiy maqsadlardan biri - yosh avlodni o`sha xuruju tahdidlardan himoya qilishga qaratilmog`i zarur. Zero, globallashuv - insonning ongu shuuri, tafakkuri samarasi snfatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, ta`bir joiz bo`lsa, insoniyat boshidagi yana bir sinov. Bugungi kunda dunyodagi ayrim qudratli davlatlar o`z milliy manfaatlarini amalga oshirishda globallashuv jarayonidan ustamonlik bilan foydalanib qolishga urinmoqda. Bu manfaatlarining shakli, ko`rinishi, sohasi, yo`nalishi, turlicha”<sup>1</sup>. Ana shunday ekan yoshlarda axborot iste`moli madaniyatini rivojlantirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko`lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga tasir ko`rsatgan va ko`rsatayotgan omil sifatida e`tirof etiladi. E`tiborli jihati, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o`sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo`nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo`la oladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog`i orqali bir-biri bilan bog`langan va bir vaqtning o`zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud komp`yuterning grafik sifatidagi ma`lumotlariga o`ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi - din niqobi ostidagi ekstremistik tashkilotlarning saytlarida asosan davlat to`ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o`tish mumkin. Ularda ISHID go`yo Islom yo`lida “qurbon” bo`layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan. Bugungi kunda ekstremistik tashkilotlarning targ`ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” hamda “Telegram” ijtimoiy tarmoqlarida buzg`unchilik va yot g`oyalarni targ`ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ularning asl maqsadlari, Islom dinini noto`g`ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo`lga kiritish hisoblanadi.

Keyingi paytlarda ilmiy manbalarda tez-tez “axborot iste`moli madaniyati” atamasi qo`llanayotganiga guvoh bo`lmoqdamiz. Unga ko`ra, har kim o`zi e`tiqod qiladigan mafkura tarqatuvchisi va targ`ibotchisidir. Yuksak axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining turli

¹ Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish - T: O`zbekiston, 2009. - B.5-6. B.5-6.

² Rasulov A. Global jarayonlar va ma`naviyat. //J. O`zbekiston matbuoti - Toshkent, 2008. - № 5-6. - B.8-9.

sohalariga joriy etish – davr talabi. Ammo uning ham o`ziga xos jihatlari bor. Jumladan,

- uning natijasida jismoniy mehnat hajmi keskin qisqaradi. Bu esa ishsizlikning ortishidir. Demak, amaliyotga ilm-fanning eng so`nggi natijalarini joriy etish barobarida yangi ish o`rinlarini yaratish ustida jiddiy bosh qotirish ham muhim hisoblanadi;
- yuksak darajada texnik imoniyatlarga ega bo`lish mehnat, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi, inson uchun murakkab va qiyin bo`lgan ishlarni texnika o`z zimmasiga oladi va insonlarning aqliy faoliyati uchun keng yo`l ochiladi.
- dunyo xalqlari bilan muloqot almashinuvi osonlashadi, tezlashadi. Jahondagi istalgan mamlakat kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va muhim kitoblardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;
- madaniyatlararo aloqalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi. Dunyo yaqinlashadi.

Demak, har bir olingan ma`lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o`sha ma`lumotga qarab ish tutish turli muammo va javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g`arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo`yiladi.